


**Toshkent shahar  
Yunusobod tumani  
273- umumta'lim maktabi  
geografiya fani o‘qituvchisi “Yilning eng  
yaxshi fan o‘qituvchisi” ko‘rik-tanlovi  
g‘olibi Boltayeva Lola  
Abduvohidovnaning 9- sinf “Xitoy Xalq  
Respublikasi. Tabiat va mehnat  
resurslari” mavzusiga tayyorlagan dars  
ishlanmasi**



**Fan: Geografiya**

**Sana:** \_\_\_\_\_

**Sinf: 9**

## **Mavzu: Xitoy Xalq Respublikasi. Tabiatи va mehnat resurslari**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy maqsad:**

O'quvchilarga Osiyo davlatlari haqida ma'lumot berishda davom etib, Xitoy davlatining geografik o'rni, tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisini chuqur o'rgatish.

**Tarbiyaviy maqsad:**

O'quvchilarni darslikdan tashqari adabiyotlarni va internet ma'lumotlarini o'rganishga da'vat etish; o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash; jamoa bo'lib ishslash, o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda mas'uliyatni his qilish kabi ko'nikmalarini tarkib toptirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:**

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, nutq madaniyatini o'stirirish, o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish, hozirjavoblik, topqirlik hususiyatlarini rivojlantirish.

**Darsning jahozi:**

Dunyoning siyosiy xaritasi, Xitoyning tabiiy va siyosiy-ma'muriy xaritalari, xitoyliklarning milliy kiyimlari va idishlaridan namunalar, Xitoy tabiatи rasmlari, Buyuk Xitoy devori rasmi, Xitoy davlati bayrog'i, Osiyo davlatlari bayroqlari maketlari, globus maketlari.



**Darsning texnik jixози:** Multimediya, kompyuter, slaydlar, Xitoy haqidagi film.

**Dars tipi:** Yangi bilim beruvchi, aralash.

**Dars turi:** Noan'anaviy.

**Dars o'tish metodi:**

“Diqqatni tortish”, “Aqliy hujum”, “Guruхlar bilan ishlash”.

**Dars rejasi:**

1. Tashkiliy qism. (2 daqqa);
2. Guruхlarga bo`linish (2 daqqa);
3. O`tilgan mavzuni so`rash. (xotirani sinash);
  - a) Juftlikda ishlash uchun topshiriq.  
Davlat chegaralarini belgilash. (5 daqqa)
  - b) Davlatlar haqidagi ma'lumotni ajratish. (8 daqqa)
4. Yangi mavzu bayoni. Slayd namoyishi. (6 daqqa);  
“Xitoya sayohat” filmini tomosha qilish (10 daqqa);
5. Mavzuni mustahkamlash. Guruхlarda ishlash. (8 daqqa);
6. Baholash. (2 daqqa.)
7. Uyga vazifa (2 daqqa).

**Darsning borishi:**

**1. Darsning tashkil etilishi:**

Salomlashish, davomatni aniqlash; Siyosiy axborot tinglash.

O`quvchilarni darsga hozirlab, jonli muhit yaratish.

O`quvchilar o`tilgan mavzuga ko`ra 3 guruхga bo`linib oladilar.

**I -guruх. Eron guruhi**

**II- guruх. Afg`oniston guruhi**

**III- guruх. Pokiston guruhi**

O'quvchilar bilan birgalikda guruhlarda ishlash uchun amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi.

### **OLTIN QOIDALAR**

- 1. Intizom**
- 2. O'zaro hurmat**
- 3. Faollik**
- 4. Vaqtga rioya qilish**
- 5. Asosli va mantiqiy fikr bildirish**
- 6. Fikrni takrorlamaslik**
- 7. O'ng qo'l ko'tarish qoidasi**
- 8. To'g'ri javob uchun rag'bat**

**Baholash mezonlari:**



“5” ball .



“4” ball.



“3” ball

Har bir shartni bиринчи bo'lib bajargan guruhga ham alohida rag'bat “globuschalar” berib boriladi.

Sardorlar belgilab olinadi, nazoratchi guruhi tashkil etiladi.

Diqqatni tortish mashqi:

Davlatlar nomini qit'alar bo'yicha ajrating.

<b>Avstriya</b>	<b>Andorra</b>	<b>Eron</b>
<b>Singapur</b>	<b>Butan</b>	<b>Ispaniya</b>
<b>Malayziya</b>	<b>Tailand</b>	<b>Mo`g`uliston</b>
<b>Ukraina</b>	<b>Pokiston</b>	<b>Fransiya</b>
<b>Janubiy Koreya</b>	<b>Italiya</b>	<b>Vietnam</b>
<b>Germaniya</b>	<b>Bangladesh</b>	<b>Iordaniya</b>
<b>Nepal</b>	<b>Portugaliya</b>	<b>Afg`oniston</b>
<b>Kipr</b>	<b>Yaman</b>	<b>Finlandiya</b>

**To`g`ri javob:**

<b>Yevropa</b>	<b>Osiyo</b>
Avstriya	Singapur
Ukraina	Malayziya
Germaniya	Janubiy Koreya
Andorra	Nepal
Italiya	Kipr
Portugaliya	Butan
Ispaniya	Tailand
Fransiya	Pokiston
Finlandiya	Bangladesh
	Yaman
	Eron
	Mo`g`uliston
	Vietnam
	Iordaniya
	Afg`oniston

Har bir guruhga o'z nomiga ko'ra davlatlarning chegaradosh davlatlarini belgilash topshirig'i beriladi.

3 daqiqa vaqt ichida juftlikda „Eron“ guruhi a'zolari Eron davlatining, „Afg'oniston“ guruhi a'zolari Afg'oniston davlatining, „Pokiston“ guruhi a'zolari Pokiston davlatining chegaradosh davlatlarini yozishlari kerak.

Javoblar rag`batlantiriladi.

Har bir shartni 1-bo`lib bajargan guruh a'zolari globuslar maketlari bilan rag`batlantirib boriladi.

Guruhlarga Eron, Afg'oniston, Pokiston davlatlarining geografik o'rni, tabiiy sharoit va boyliklari, aholisi, xo'jaligi bo'yicha xotirani sinash uchun topshiriq beriladi. Har bir guruhdan o'quvchilar navbatma-navbat doska oldiga chiqib, o'z guruhlariga mos jumlalar yozilgan qog'ozlarni olib kelib, o'z qog'ozlariga yopishtirishadi. Topshiriq javoblari.

## Eron Islom Respublikasi

Janubi-g`arbiy Osiyoda joylashgan davlat	Arabiston dengizi, Kaspiy dengizi va Fors ko'rfazi o'rabi turadi.	Ma'muriy jihatdan 23 provinsiyaga bo'linadi.
Davlat tuzumi  Islom Respublikasi.	1979- yil 1- aprel kuni mamlakat mustaqil Islom Respublikasi deb e'lon qilindi.	Qonun chiqaruvchi hokimiyat  2 palatali parlament.
Aholisining soni 2013 yil iyulda 80 mln. kishi.	O'rtacha yillik o'sish sur'ati 0,9 foiz.	Tabiiy o'sish 1,2 % ga teng.
Davlat tili — fors tili.	BMT, XVF, OPEK ga a'zo.	Aholi zichligi har km <sup>2</sup> ga 50 kishi.

Yirik shaharlari- Tehron, Mashhad, Isfaxon, Tabriz.	Qora ikra eksporti bo'yicha jahonda 1- o'rinda turadi.	Neft va tabiiy gaz bilan eng yaxshi ta'minlangan.
Maydoni 1,65 mln km <sup>2</sup> .	Tug'ilish har ming kishiga 20,6 kishi.	Asosiy daryosi Karun.
Eng baland joyi Demavend vulqonida - 5604 metr.	Poytaxti Tehron shahri	Iraq, Afg'oniston, Pokiston, Turkmaniston, Turkiya, Ozarbayjon va Armaniston bilan chegaradosh.

## Afg'oniston Islom Respublikasi

Eron, Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston va Pokiston davlatlari bilan chegaradosh.	Ma'muriy jihatdan viloyatga bo`linadi. 29	Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat — Loyya Jirg'a va Milliy Kengash.
Relyefi tog'li.	Aholi soni 32,7 mln. kishi.	Aholi zichligi 1 km <sup>2</sup> ga o`rtacha 48 kishi.
Har 1000 kishiga tug'ilish 37 va o`lim 19 kishidan to`g'ri keladi.	Assosiy millat vakillari — pushtunlar.	O'zbeklar shimoliy va shimoli-g`arbiy provinsiyalarda keng tarqalgan.
Qora dori va heroin uchun ko`knori yetishtiriladi.	Maydoni 652 ming km <sup>2</sup> .	Poytaxti Qobul shahri.
Dunyoning eng notinch va muammoli mamlakatlaridan biri.	Tabiiy boyliklari yetarlicha o`rganilgan emas.	O`rtacha umr erkaklarda 43 yosh, ayollarda 42 yosh.
Qishloq xo`jaligining asosini sug`orma dehqonchilik tashkil etadi.	Chorvachilik ekstensiv xususiyatga ega.	Materik ichkarisida joylashgan mamlakat.
O'zbekiston bilan manfaatli aloqalarga tolbonlar to`sinqinlik qilmoqda.	Meva va uzum yetishtirish muhim rol o`ynaydi.	Qo`ychilik va uzumchilik birmuncha yaxshi rivojlangan.

## Pokiston Federativ Islom Respublikasi

Eron, Afg'oniston va Hindiston davlatlari bilan chegaradosh	Janubidan Arabiston dengiziga tutashdir.	Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat — parlament (Milliy Assambleya va Senat).
Relyefi janubdan shimolga va shimali-sharqqa tomon ko'tarilib boradi.	Aholining soni 193,2 mln. kishi (2013)	Aholining o'rtacha zichligi 1 km <sup>2</sup> ga 243 kishi.
Har 1000 kishi hisobiga tug'ilish 32, o'lim 16 kishiga to'g'ri keladi.	Urbanizatsiya darajasi — 36,2 %.	Aholisining soni bo'yicha Xitoy, Hindiston, AQSh, Indoneziya va Braziliyadan keyin dunyoda 6- o'rinni egallaydi.
Ham tog', ham tekislik mamlakat.	Eng yirik shahri Karachi	Karachi, Revelpindi, Islomobod, Peshavar kabi yirik katta va o'rta shaharlar mavjud.
«Yashil inqilob» oqibatida o'zining donga bo'lgan talabini to'liq qondirmoqda.	Maydoni 796 ming km <sup>2</sup> .	2005 yilning oktabr oyida dahshatli zilzila yuz bergen.
Aholining o'rtacha umr davri 65 yosh.	Asosiy millat vakillari — panjobliklar.	Sanoatning asosiy tarmog'i yengil sanoat.
Tabiiy gaz, neft, ko'mir, xromitlar qazib olinmoqda.	Temir yo'l, avtomobil hamda dengiz transporti yaxshi rivojlangan.	Valyuta tushumlarining 2/3 qismi sholi va paxtaga to'g'ri keladi.

Yangi mavzu nomi o'tilgan mavzu bo'yicha berilgan savollar javoblarining bosh harflaridan hosil bo'ladi.

### O'qituvchi:

- Demak, bugungi mavzuimiz nomi ham kelib chiqdi:

### **Mavzu: Xitoy Xalq Respublikasi.**

Slayd orqali Buyuk Xitoy devori rasmi ko'rsatiladi?



O'quvchilar u haqda bilganlarini aytadilar.

O'qituvchi Xitoy milliy kiyimini kiyib, u haqda ma'lumot beradi.

Slayd orqali Xitoy Xalq Respublikasi haqidagi ma'lumotlar va davlatning siyosiy, tabiiy, aholi xaritalari ko'rsatiladi.



Maydoni: 9,6 mln. km. kv.

- 14 ta davlat bilan chegaradosh:
- Xitoy quruqlikda shimoli-sharq va shimoli-g`arbda Rossiya bilan, shimolda Mo`g`uliston bilan, shimoli-sharqda KXDR bilan, shimoli-g`arbda Qozog`iston va Qirg`iziston bilan, g`arbda Pokiston, Tojikiston, Afg`oniston bilan, janubi-g`arb va janubda Hindiston bilan, janubda Myanma(Birma), Vietnam, Butan, Nepal, Laos bilan chegaradosh.
- Xitoy sohillari sharqda Sariq dengiz va Sharqiy Xitoy dengizi, janubda Janubiy Xitoy dengizi suvlari bilan yuvilib turadi.

Xitoy relyefi murakkab.

- Mamlakat hududining 3/4 qismi tog`liklar, yassitog`liklar va keng tog` oralig`i botiqlari bilan band.
- Hududi jihatidan eng katta tekislik Buyuk Xitoy tekisligining shimoliy qismi Xuanxe daryosi keltirgan allyuviydan, markaziy va janubiy qismi Yanszi va uning irmoqlari keltirgan yotqizilardan tashkil topgan.
- Mamlakatning butun janubi-g`arbiy qismini Tibet tog`ligi egallagan bo`lib, katta qismi 4000 m balandda joylashgan.
- Shimolda tog`lik Kunlun, janub va g`arbda - Himolay va Qoraqurum tog`tizmalari bilan tutashadi.
- Xitoy shimoli-g`arbida Jung`or va Qashqar (Tarim) botiqlari hamda Taklamakon cho`li bilan Tyan-Shan tog`ligi joylashgan.

Multimediya orqali Xitoy to`g`risida filmdan parcha namoyish etiladi.

O`qituvchi Xitoy Xalq Respublikasining tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari yuzasidan o`quvchilar bilimlarini bilish uchun guruhlarga topshiriq beradi.

1-guruh. Xitoy Xalq Respublikasi bilan chegaradosh davlatlarni yozing.

2-guruh. Xitoy Xalq Respublikasi aholisi zichligini aniqlang va millioner shaharlarini shablonga belgilang. yozing.

3-guruh. Xitoy Xalq Respublikasi haqida 7 ta asosiy ma'lumot yozing. Maydoni – Poytaxti –

Tashkil topgan yili –

Nechta davlat bilan chegaradosh -

Aholisi soni –

Aholi zishligi –

Millioner shaharlari soni -

Guruhrular javobi slayd orqali tekshiriladi.

Dars yakunida guruhrular to'plagan maketlar sanaladi, g'olib guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi. Guruhlarga darsdagi ishtirokiga qarab "Eng bilimdon guruh", "Eng faol guruh", "Eng hamjihat guruh" unvonlari beriladi.

### **Uyga vazifa:**

44 – mavzu: Xitoy Xalq Respublikasi tabiatni va mehnat resurslari mavzusini o'qib kelish va savollarga javob yozish.

Internet tarmog'ining quyidagi saytlaridan Xitoy davlati haqida qo'shimcha ma'lumotlar to'plash:

[www.geografiya.ru](http://www.geografiya.ru).- dunyo mamlakatlari haqida ma'lumotlar sayti.

[www.Google.ru](http://www.Google.ru).- dunyo mamlakatlari haqida ma'lumotlar sayti.

[www.geosita.com](http://www.geosita.com) - mamlakatlar geografiyasi

[www.karta.com](http://www.karta.com) - karta sayti.